




Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

INVESTITSIYA VA QURILISH

Toshkent viloyatida qurilish-pudrat ishlari umumiy hajmi 2018 YIL YANVAR-OKTYABR UCHUN


2018 yilning yanvar-oktyabr oyi davomida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 1791,5 mlrd.so‘m miqdorida baholandi va mos ravishda o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 113,7 foizni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida sohalar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-oktyabr uchun (mlrd. so‘m)






Hududlar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-oktyabr uchun (mlrd. so'm)




Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida Olmaliq shaharda 197,1 mlrd. so'mlik, Zangiota tumanida 243,5 mlrd. so'mlik, Kibray tumanida 196,2 mlrd. so'mlik, YUqorichirchiq tumanida 166,3 mlrd. so'mlik, Bekobod shahrida 117,6 mlrd so'mlik qurilish va pudrat ishlari amalga oshirilib eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishildi.

Hududlar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-oktyabr %




Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarga Olmaliq shahar 249,4 foizga, Zangiota tumani 128,7 foizga, Ohangaron shahar 121,6 foizga erishdi.

Qurilish pudrat ishlar xajmi sektorlar bo'yicha




1.Yirik korxonalar tomonidan;

Toshkent viloyatida yanvar- oktyabr oyi davomida yirik qurilish pudratchi korxonalar tomonidan 445,8 mldr.so‘mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o‘tgan yilga nisbatan 182,0 foizni jami qurilish-pudrat ishlar hajmidagi ulushi 24,9 foizni tashkil qildi. Bundan ko‘rinib turibdiki yirik qurilish korxonalar tomonidan qurilish ishlar xajmini o‘tgan yilga nisbatan 82,0 punktga ko‘payishi viloyatning umumiy qurilish ishlar xajmida o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi.




2.Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha;

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarda o‘tkazilgan monitoring kuzatuv natijalariga ko‘ra ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2018 yil yanvar- oktyabr oylarida 622,5 mldr.so‘mga yaqin miqdorida baholandi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 96,7 foizni jami qurilish-pudrat ishlar hajmidagi ulushi 34,7 foizni tashkil etdi.



3.Qurilish pudrat ishlar hajmi jami norasmiy sektor bo‘yicha:

2018 yilning yanvar- oktyabr oylari davomida jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 723,3 mlrd.so‘m miqdorida baholandi va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 104,8 foizni, jami qurilish-pudrat ishlar hajmidagi ulushi 40,4 foizni tashkil etdi.



*Investitsiya va qurilish
statistika bo‘limi
boshlig‘i urinbosari
B.Djavliev
Tel;230-86-70(71)*